

XORAZMSHOHLAR XONADONI AYOLLARI QISMATI: TURKON XOTUN FOJIASI VA XON SULTON MISSIYASI

Matkarimova Sadokat Maksudovna

Tarix fanlari doktori (DSc), professor, Ma'mun universiteti "Tarix"

kafedrası mudiri, O'zbekiston.

E:mail: sadoqatmaksudovna1982@gmail.com

<https://orcid.org/0000-0002-4641-8686>

***Annotatsiya:** Anushteginiy Xorazmshohlar davlati (1097–1231) nafaqat Xorazm, balki Dashti Qipchoqning janubi, Sharqiy Turkiston, O'rta Osiyo, Yaqin va O'rta Sharq davlatlarini birlashtirgan buyuk saltanat bo'lgan. Bu davlat ichki va tashqi siyosatida ayollar qay darajada o'rin egalaganligi masalasi, ayniqsa, mo'g'ul bosqini arafasida Xorazmshohlar davlati yuritgan siyosat va bu siyosatga ayollar ta'siri masalasi dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Zero, mo'g'ullar bosqini arafasida Muhammad Xorazmshohning onasi Turkon Xotunning siyosiy ta'siri, hukmdor o'g'linikidan yuqori bo'lsa yuqoriki, past bo'lmagan. Shu jihatdan ko'pgina manbalarda ham, tarixshunoslik tadqiqotlarida ham Turkon Xotun yuritgan siyosat natijasida davlat parchalanib, mo'g'ul bosqinchilari otlari tuyoqlari ostida toptalgan, Turkon Xotun bu fojining bosh sababchilaridan biri qilib ko'rsatiladi. Mazkur maqolada mo'g'ul bosqini arafasida Xorazmshoh – Anushtaginiylar davlatida kechgan siyosiy jarayonlarning mazmun – mohiyati, unda ayollar o'rni masalasi, hozirgacha bu borada tarix fanida shakllangan qarashlar tahlil qilinib, mazkur muammo yuzasidan yangicha xulosalarga kelinganligi yoritib berilgan.*

***Kalit so'zlar:** Xorazmshoh-anushteginiylar, Muhammad xorazmshoh, Turkon xotun, Xon Sulton, Jaloliddin Manguberdi, Sulton Qutuz, qipchoq, qang'li, Nasaviy, Juvayniy, Maqriziy, Rashididdin, Ibn al-Asir, Juzjoniy, V.V. Bartold, P.Pelo, Z.Buniyodov, S.M.Axinjanov, D.M. Timoxin.*

***Аннотация:** Государство Хорезмшахов-Ануштегинидов (1097–1231) являлось великой державой, объединившей не только Хорезм, но и южную часть Дешт-и Кыпчака, Восточный Туркестан, страны Средней Азии,*

Ближнего и Среднего Востока. Вопрос о том, какое место занимали женщины во внутренней и внешней политике этого государства, особенно проблема влияния женщин на политику Хорезмшахов накануне монгольского нашествия, относится к числу актуальных научных проблем. Известно, что в преддверии монгольского завоевания политическое влияние матери Мухаммада Хорезмшаха — Туркан-хатун — было не ниже, а порой и выше влияния самого правителя. В связи с этим во многих источниках и историографических исследованиях именно политика Туркан-хатун рассматривается как одна из причин распада государства и его гибели под натиском монгольских завоевателей; Туркан-хатун нередко представляется одной из главных виновниц этой трагедии. В данной статье раскрываются сущность и содержание политических процессов, происходивших в государстве Хорезмшахов-Ануштегинидов накануне монгольского нашествия, анализируются роль женщин в этих процессах, а также сложившиеся в исторической науке взгляды по данной проблеме. На основе проведённого исследования сформулированы новые научные выводы по рассматриваемому вопросу.

Ключевые слова: Хорезмшахи-Ануштегиниды, Мухаммад Хорезмшах, Туркан-хатун, Хан-Султан, Джалал ад-Дин Мангуберды, султан Кутуз, кипчаки, канглы, ан-Насави, Джувейни, аль-Макризи, Рашид ад-Дин, Ибн аль-Асир, Джузджани, В. В. Бартольд, П. Пеллио, З. Буниятов, С. М. Ахинжанов, Д. М. Тимохин.

Abstract: *Anushtegini Khorezmshahs state (1097-1231) was a great kingdom that united not only Khorezm, but also the south of Dashti Kipchak, Eastern Turkestan, Central Asia, the Near and Middle East. The issue of the role of women in the domestic and foreign policy of this country, especially the policy of the Khorezmshah state on the eve of the Mongol invasion and the influence of women on this policy, is one of the most urgent problems. After all, on the eve of the Mongol invasion, the political influence of Muhammad Khorezmshah's mother, Turkon Khotun, was higher than that of the ruler's son. In this regard, in many*

sources and historical studies, as a result of Turkon Khotun's policy, the state disintegrated and was trampled under the hoofs of Mongol invaders, Turkon Khotun is shown to be one of the main causes of this tragedy. In this article, the essence of the political processes that took place in the Khorezmshah-Anushtagini state on the eve of the Mongol invasion, the issue of the role of women in it, the opinions formed in the field of history until now, and new conclusions about this problem are highlighted.

Keywords: *Khorezmshahs-Anushteginids, Muhammad Khorezmshah, Terken Khatun, Xan Sultan, Jela ad-din Menkburni, Sultan Kutuz, Kypchak, Kangli, Nesevi, Juveini, Makrizi, Rashid ad-din, Ibn al-Athir, Juzjani, V.V.Barthold, P. Pello, Z. Bunyadov, S.M.Axinjanov, D.M. Timokhin.*

KIRISH (INTRODUCTION). Tarixiy manbalar va tarixshunoslik tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, Xorazmshoh – Anushteginiylar sulolasi tarixining so'nggi davrlari bo'yicha murakkab va munozarali masalalar ko'p. Jumladan, Alouddin Muhammad xorazmshohning onasi Turkon Xotun bilan munosabatlari, mo'g'ul bosqini arafasidagi tashchi va ichki siyosatiga Turkon Xotun ta'siri masalasida ko'pgina bir – biriga qarama – qarshi fikrlar mavjud. Ayniqsa, mo'g'ul bosqini va u bilan bog'liq holda mazkur sulolaning parchalanib ketishida Turkon Xotunning o'рни masalasida haligacha o'z yechimini topmagan muammolar talaygina. Qolaversa, bu borada Alovuddin Muhammadning qizi Xon Sultonning siyosiy jarayonlardagi o'рни masalasiga esa shu paytgacha umuman kam e'tibor qaratilgan. Zero, yozma manbalarning ma'lumotlariga ko'ra Xon Sulton keyinchalik Oltin O'rda davlatining musulmonlashuvida juda katta ro'l o'ynagan. Mazkur muammoning eng asosiy yechimi esa, o'sha davr tarixiy jarayonlarini o'zida aks ettirgan har qanday manbani nazardan chetda qoldirmasdan, chuqur ilmiy tahlil qilgan holda yakuniy xulosalar chiqarish lozim.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI (LITERATURE REVIEW). Anushtaginiylar davlati ichki va tashqi siyosatida ayollar qay darajada o'rin egalaganligi masalasi, ayniqsa, mo'g'ul bosqini arafasida Xorazmshohlar

davlati yuritgan siyosat va bu siyosatga ayollar ta'siri masalasi aks etgan alohida yozma manba yo'q. Yozma manbalarda jumladan, an-Nasaviy, Juvayniy, Ibn al-Asir, Rashididdin va Juzjoniyy kabi asosiy manbalarda bu masalada bir-biriga zid va qarama-qarshi fikrlar mavjud bo'lib, ular ham alohida mavzu sifatida tahlil qilinmagan.

Xuddi shunday bu masalada alohida tarixiy talqiqotlar ham olib borilmagan. Faqat shunisi ma'lumki, bu muammo yozma manbalarda ham, tarixiy tadqiqotlarda ham qisman keltirilib o'tilgan xolos. Qolaversa, bu tadqiqotlarning deyarli barchasida, aynan onasi Turkon Xotun ta'siri oqibatida Muhammad xorazmshoh mo'g'ul bosqiniga qarshi qabul qilgan qaror yoki qo'llagan harbiy reja hamda bevosita Turkon Xotunning ta'sirida xorazmshohlar davlati yengilib, yo'q qilinishiga eng asosiy sababchi bo'lganlar degan xulosaga kelingan. Jumladan, xorazmshoh – anushteginiylar tarixi haqida ko'proq to'xtalib o'tgan tadqiqotchilardan eng muhimlari V.V. Bartold, P.Pelo, Z.M. Buniyodov, S.M. Axinjanov, D.M.Timoxin, V.V. Tishin, Ya.Pilipchuk, M.Bayramov va shu kabi tadqiqotchilar maqolalarida bu mavzu yuzasidan manbalarni tahlil qilish asosida ma'lum bir fikr – mulohazalar bildirib o'tilgan bo'lsada, ammo, bu maqolalar mualliflarining yakuniy xulosalari yuqorida ta'kidlaganimizdek bir xil.

TADQIQOT METODOLOGIYASI (RESEARCH METHODOLOGY).

Maqolada tizimlashtirish, tarixiy-qiyosiy tahlil, tarixiy ma'lumotlarni umumlashtirish, xolislik tamoyili kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR (ANALYSIS AND RESULTS). Anushteginiy Xorazmshohlar davlati (1097–1231) nafaqat Xorazm, balki Dashti Qipchoqning janubi, Sharqiy Turkiston, O'rta Osiyo, Yaqin va O'rta Sharq davlatlarini birlashtirgan buyuk saltanat bo'lgan. Bu davlat siyosiy hayotida ayollar o'rni masalasi kam o'rganilgan, ammo dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Shu jihatdan olganda mazkur tadqiqotda sulolaning ikki eng mashhur ayol siyosiy arboblari bo'lgan Turkon Xotun va Xon Sulton hayoti va faoliyati ochib berishga harakat qilingan.

Xorazmshoh Takish qipchoqlar bilan ittifoqqa kirib, ularni o'ziga og'dirish niyatida qipchoq xoni Jonkishining qizi Turkon Xotunga uylanadi. Bayot urug'idan bo'lgan Turkon Xotun Xorazmga turk qabilalari (uraniylar, qarluqlar, ug'roqlar, xalaj qabilalari)ni olib keladi va ularning qudratli homiysiga aylanadi.

Hijriy 596 yil 20 shavvol (1200 yil 3 avgust)da Gurganj aholisi, davlat a'yonlari va amirlari ishtirokida Xorazmshohlar davlati taxtiga Takish va Turkon Xotun o'g'li Qutbiddin Muhammad o'tirdi va u otasining Alouddin laqabini qabul qildi. Keyinroq esa Sanjar ikkinchi nomini oldi.

An–Nasaviy Turkon Xotun haqida quyidagicha tavsif qoldirgan: «Yuqorida aytib o'tilgan Turkon Xotun Bayavut toifasidan bo'lib, yemak urug'ining shoxobchasidandir. Qachonki, uning mavqei mustahkamlangandan so'ng «Xudovandi Jahon», ya'ni butun dunyo hukmdori laqabini olgan edi. U turkiy hukmdorlardan Jonkishining qizi bo'lib, El–Arslonning o'g'li Takish unga uylanadi. Takish o'lgandan so'ng davlat tepasiga kelgan o'g'li Alouddin Muhammad Xorazmshoh davrida onasi Turkon Xotunning obro'si ko'tarilib, davlat ishlarini ham boshqargan» [1, 64-b.].

Hatto Xorazmshoh Muhammad mastligida onasi Turkon Xotunning xiyonati tufayli shayx Najmiddin Kubroning shogirdi shayx Majididdin Bag'dodiyini qatl qilish haqida farmon ham beradi. Bag'dodiyning qatl qildirilishi din ulamolarini Muhammaddan ixlosini qaytargan edi. Turkon Xotunning bunday nodonligi Xorazmshohlar davlatiga sonsiz kulfatlar keltirdi.

Nasaviyning guvohlik berishicha, makkor Turkon Xotun o'g'liga shu daraja o'z ta'sirini o'tkazganki, natijada Xorazmshoh Muhammad mamlakat ichkarisidagina emas, balki xalqaro maydonda ham Xorazmning yagona hukmdori sifatidagi rolini boy berdi. Bundan tashqari, katta qudratga ega bo'lgan sarkardalarining ko'pchiligi qipchoqlardan bo'lgani bois, hukmdor onasiga yon berishga majbur edi [1, 64-b.].

An–Nasaviy bunday yozadi: «Agar malikadan va sultondan bir ish haqida ikkita ko'rsatma kelsa, u holda ularning sanasiga qarar edilar va barcha mamlakatlarda keyingi sanaga amal qilardilar...» [1, 85-b.].

Turkon Xotun «Jahon hokimi» laqabiga ham ega edi, uning farmonlaridagi shaxsiy muhri — tugʻrisida: «Ismat ud-dunyo vad-din Ulugʻ Turkon malika niso al-olamiyn» (Dunyo va uning pokdomoni, Ulugʻ Turkon, olam ayollarining malikasi) deb bitilgan edi. U «Iʼtasamtu billahi» («Faqat Allohdan himoya kutaman») deyilgan soʻzlarni bosh shior qilib olgan. U oʻz shiorini oʻgʻli shiorining yoniga qoʻyar edi [1, 64-b.].

Xorazmshohlar davlatida moʻgʻullar bosqini arafasida bir mamlakatda ikkita paytaxt - Gurganj va Samarqand, ikkita hukmdor — Turkon Xotun va Xorazmshoh Alouddin Muhammad bor edi.

Gurganj shahrida Turkon Xotunning qarindoshlaridan sultonning turkiy qoʻshiniga tegishli nufuzli aʼyonlarga (boshliq oʻrnida) edilar, jumladan, Xumor Agʻu - hojib sipohsolor (lashkarboshi), Buka Pahlavon, Ali Margʻini va boshqalar.

Xorazmshoh 1216 yilda onasining shayxini qatl qildirgandi. Ona-oʻgʻil raqobati davlatni ich-ichidan nuratmoqda edi. Sultonning xalifa nomini xutbada zikr etmaslik toʻgʻrisidagi farmoniga faqat Marv, Balx, Buxoro va Saraxsda amal qilinar, Samarqand, Hirot va Xorazmda esa aksincha edi. Mahalliy anʼanalarning kuchli ekanligi, Turkon Xotunning va uning taʼsiri ostidagi xonlar va ulamolarning Sulton Muhammad hukmronligi davrida davlatchilikda oʻziga xos ikki hokimiyatchilikning yuzaga kelishida saljuqiylarning bosh vaziri mashhur Nizomul-mulk (1018–1092) ishora etganidek, «Qachonki podshohlik ishi ayollar va goʻdaklar qoʻliga oʻtsa, bilginki, podshohlik oʻsha xonadonni tark etgay». Xullas, amirlar, harbiylar iloji boricha oʻz mavqelarini qanday boʻlmasin mustahkamlab borishga harakat qilganlar.

Xorazm poytaxtini qamal etgan Chingizxon lashkarlari turli nayranglar bilan shohning onasi Turkon Xotunni taslim boʻlishini talab qilishgan. Gurgandagi qoʻshin va aholisi mudofaa kuchiga ega boʻlsa-da, Turkon Xotun Vatanni dushmanga tashlab qochgan oʻgʻli Muhammaddan keyin vahimaga tushadi. Samarqand taslim boʻlgandan soʻng, Chingizxon Xorazmshohning qoʻshin toʻplab, qarshilik koʻrsatishiga yoʻl bermaslik va oʻzini qoʻlga tushirish maqsadida, sarkardalari Jebe noʻyon va Subedey noʻyonni taxminan 20 minglik qoʻshin bilan

Sulton ketidan jo'natdi. Mo'g'ullarning ta'qibiga uchragan Xorazmshoh Xuroson va Eron orqali o'tib Kaspiy dengazidagi orollardan biriga kelib qoladi. Bor-budidan mosuvo bo'lib, g'am-alam ostida og'ir kasallikka chalingan Sulton Alouddin onasi Turkon Xotunning mo'g'ullarga asir tushganini eshitib valiahd tayinlash borasida burungi farmonini bekor qilib, Jaloliddinni taxt vorisi deb e'lon qilgan edi [1, 86-b.].

1220 yili Xorazm mo'g'ullar tomonidan istilo qilingach, Sulton Alouddin Xazar dengizidagi Abiskin orollaridan biriga qochishga majbur bo'ldi. Shoh xotinlari va farzandlari xazinadagi boyliklar va boshqa qimmatbaho buyumlarini olib shaharni tark etadi. Berahm malika esa shaharda qolgan barcha sultonlar, hokimlar va ularning o'g'illarini, jami 26 kishini qatl qildirgan, ya'ni Amudaryoga cho'ktirgan. Bunday sharmandalik Turkon Xotundan ko'p tarafdorlarini yuz o'girtirgan. U faqat o'z xizmatkorlari, vazir Muhammad Solih hamda yo'l ko'rsatuvchi Umarxon hamrohligida qochib ketgan [1, 62-b.]. Noshukr malika Ilol shahri Mozandaronga etgach, yo'l boshlovchini ham qatl qildiradi. Chingiz lashkarlari Turkon Xotun izidan borib, Ilol shahrini qamal qilib, ko'p o'tmay uni ham bosib oladi. Malika Xorazmshohning butun harami, bolalari bilan asirga tushadi. Mo'g'ullar shoh bolalarini o'ldirib, haram ayollarini xotin qilib oladilar, Turkon Xotun esa Chingizxon qarorgohiga jo'natiladi. Turkon Xotunning asirlikdagi ahvoli juda ayanchli edi, u Chingizxonning dasturxonida qolgan sarqiti bilan ovqatlanardi. Bir paytlar har qanday farmoyishi darhol bajarilgan malikai jahon Turkon Xotun 1233 yili xoru zorlikda vafot etadi [1, 62-b.].

Xorazmshohlar – Anushteginiylar sulolasining yana bir mashhur ayol vakili bu Xon Sultondir. U Xorazmshohlar davlati malikasi, Muhammad Xorazmshohning qizi, Jaloliddin Manguberdining opasi hisoblanadi. Ammo uning onasi kim bo'lganligi noma'lum. Xon Sulton to'g'risida to'liq ma'lumot beruvchi manba yo'q. Turli manbalarda u haqida qisqa, shu bilan birga bir – biriga qarama – qarshi ma'lumotlar berib o'tilgan xolos. Shuning uchun u haqdagi shu manbalar ma'lumotlarini qiyosiy tahlil qilish asosida fikr yuritish mumkin xolos. Jumladan, mashhur Misrning mamluk sultoni Qutuz biografiyasiga ko'ra, Qutuz –

Xorazmshohlar davlati hukmdori Alouddin Muhammadning (1200–1220) qizi Xonsultonning farzandi, Jaloliddin Manguberding jiyani bo'lgan [2, 78-b.]. Qutuzning nasl-nasabi esa Xorazmshohlardan ekanligini Jazari Muhammad ibn Ibrohim, Ibn Tagriberdi, Zahabiy, Ibn Xaldun, Suyutiy, Nuvayriy kabi tarixchilar ham tasdiqlaydi va buni inkor qiluvchi hech qanday manba yo'q [3, 138-b.].

Mashhur tadqiqotchi Z.Bunyodov ham o'z tadqiqotlarida Qutuz Xorazmshoh Alovuddin Muhammadning qizi Xonsultonning o'g'li bo'lganligini tasdiqlaydi [4, 223-b.]. Uning otasi to'g'risida esa aniq ma'lumotlar yo'q. Xullas, yozma manbalar ma'lumotlarining aksari Xonsultonning dastlab qoraxoniylar sulolasidan bo'lgan, Samarqand xoni Usmonning xotini bo'lganligini tasdiqlaydilar.

Faqat buvisi Turkon xotun ajdodlari orqali qipchoq xonlariga borib taqalishi aytiladi. 1210-yilda Xorazmshohlar saroyida garovda bo'lgan Qoraxoniylar davlati valiahdi Usmonga turmushga chiqqan. 1212-yili Samarqandda Xorazmshohlar davlatiga qarshi ko'tarilgan qo'zg'olondan keyin uni o'ldirmoqchi bo'lgan Usmondan qochib qal'aga yashirinib oladi va eriga shunday mazmundagi maktub bitadi: Men bir ayolman, meni o'ldirishing sharmandali holatdan boshqa narsa emas. Men senga hech qanday yomonlik tilagan emasman. Meni tirik qoldirish orqali hayotingdagi eng marhamatli ishni amalga oshirgan bo'lasan.

Qo'zg'olon Xorazmshoh Muhammad tomonidan shavfqatsizlarcha bostirilgan. Xorazmshoh Muhammadning buyrug'i bilan Usmon va uning barcha qarindoshlari qatl qilinadi. Suloladan taxtga da'vo qilishi mumkin bo'lgan birorta vakil qolmaydi. Shu tariqa Qoraxoniylar davlati ham barham topadi.

Usmon xotini Xon Sulton ko'rsatmasi bilan 1212 yilda Xorazmshoh Alovuddin Muhammad tomonidan qatl etilganidan so'ng, Jaloliddin Manguberding ota tomonidan amakisining Mamdud ismli o'g'liga turmushga berilgan bo'lishi mumkin [5, 504-b.].

Nasaviyning yozishicha Xon Sulton aqlli, o'tkir zehqli ayol bo'lgan. Shuning uchun u davlat ishlarida otasining eng yaqin yordamchisi va ishonchli kishilaridan biri bo'lib, ko'pgina hujjatlarga otasining o'rniga o'zi imzo qo'ygan [1, 72-b.].

Xonsultonning taqdiri bo'yicha ma'lumot bergan Juvayniy mo'g'ullar tomonidan Turkon xotun bilan birgalikda asir olinganidan so'ng Emilda yashovchi bo'yoqchiga erga berilgani haqida yozadi. Bizning fikrimizcha katta siyosiy kuchga ega bo'lgan Xorazmshohlar malikasini bir bo'yoqchiga nikohlanishi haqidagi Juvayniyning ma'lumoti shubhalidir [5, 72-b.]. Shuni ham qayd qilish joizki, Nasaviyga ko'ra malika Xon Sultonni mo'g'ullar tomonidan 1221 yilda asir tushganidan so'ng Chingizxonning katta o'g'li Jo'jiga nikohlab berilgan edi [1, 224-b.]. Demak, yuqoridagilardan hamda sulton Qutuz haqida yozib qoldirgan al – Maqriziyning ma'lumotidan kelib chiqib, Xon Sulton 1212-1221 yillarda amakisining Mamdud ismli o'g'liga turmushga chiqqan va shu yillar orasida ularning nikohidan Maxmud ya'ni Sayfiddin Qutuz tug'ilgan deb hulosa chiqarishga asos bo'ladi [4, 223-b.]. Qolaversa, Nasaviyda keltirilgan voqea, ya'ni Xon Sultonning Jaloliddin Manguberding Xilotni qamal qilib turgan paytda yuborgan maktubida ta'kidlashicha "Al-Hoqon (bu paytda Chingizxon vafot etib, ulug' hoqon Chingizxonning o'g'li O'qtoy edi) bolalarimga Qur'onni o'qitishimni buyurdi", deb yozganligiga qaraganda, Xon Sulton buvisi Turkon Xotundan farqli o'laroq mo'g'ul saroyida ham o'zining ilgarigi nufuzini yo'qotmagan [1, 224-b.].

Xon Sulton 1219-yilda mo'g'ullar bosqini arafasida bir qancha Xorazmshoh sulolasi vakillari, shuningdek, katta miqdordagi xazina bilan poytaxt Gurganchni tark etgan. Qochqinlar Qoraqurum cho'lini kesib o'tib, Ilol qal'asiga borib joylashadilar. Ammo, qal'a 4 oylik qamaldan so'ng mo'g'ullar tomonidan egallanadi. Xorazmshoh Muhammadning onasi, qizlari va xotinlari Chingizxon qarorgohiga yuboriladi. U yerda asirlar Chingizxon avlodlari orasida bo'lib olinadi. Manbalarda Xon Sulton Jo'jiga nikohlab berilgani aytiladi. Nikohdan Berke, Berkechar va Buri ismli farzandlar tug'ilgani taxmin qilinadi. Jo'jining 1227-yilda vafot etishi munosabati bilan yuqorida ta'kidlanganidek, ukasi Jaloliddin Manguberdiga mo'g'ullar haqida ma'lumotlar yetkazgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR (CONCLUSION/RECOMMENDATIONS)

Yuqoridagi mulohazalardan quyidagi yakuniy xulosalarga kelindi:

Turkon Xotun faoliyati Xorazmshoh – Anushteginiylar davlatining mo'g'ul bosqini arafasida zaiflashuviga olib kelganligi va oxir-oqibat davlatning mo'g'ullardan yengilib, davlat sifatida tugatilishida sabablardan biri bo'lganligi ma'lum. Zero, Turkon Xotunning o'z muhriga ega bo'lib, dabdabali “Xudovandi jahon” unvoniga ega bo'lishi, o'z o'g'li Xorazmshoh Muhammad farmon-farmoyishlarini ham mensimasligi, bu Turkon Xotunning faoliyati “davlat ichidagi davlat” sifatida baholanib, alohida institutsional kuch bo'lganligini ko'rsatadi va oxir-oqibat davlatni ichidan yemiruvchi kuchga aylanishiga olib kelganligini yaqqol ko'rsatadi. Bularga bog'liq ravishda esa Muhammad Xorazmshohning o'z onasi Turkon Xotun ta'siriga tushib qolganligi oqibatida mo'g'ul bosqini arafasidagi “xato” mudofaa rejasini qabul qilganligi, mo'g'ul bosqini davrida esa Turkon Xotunning yuritgan siyosati, ya'ni o'g'lining o'rniga nabirasi Uzlogshohni taxtga chiqarishga harakati, oxir – oqibat davlatning eng yuqori bo'g'inlarida parchalanishga olib kelib, mo'g'ullardan yengilishiga asosiy sabab bo'lgan degan qarashlarning hukmron bo'lishiga olib kelgan.

Xon Sulton hayoti va faoliyati o'zgacha ruhda kechgan hamda uning Jo'ji ulusidagi faoliyati haqidagi ma'lumotlar juda muhim ahamiyatga ega. Xon Sultonning Oltin O'rda shahzodalari Berka (keyinchalik Oltin O'rdaning beshinchi xoni va musulmonchilikni qabul qilgan ilk Oltin O'rda xoni), Berkechar va Bo'rilarning onasi bo'lganligi masalasi hali o'z yechimini to'liq topmagan. Uning Misr mamluklari davlati sultoni Kotuzning onasi bo'lganligi (bu fikrni Z.Buniyodov mamluklar davlati saroy tarixchisi Maqriziy ma'lumotlariga tayanib bildirgan) masalasi ham hozirlikcha o'z yechimini to'liq topmagan taxminiy fikr xolos. Ammo, bu o'rinda shunisi aniqki, uning Jo'jixon bilan nikohi va keyingi faoliyati, malikaning “asirlik” holatida bo'lmaganligini, bu o'rinda o'ziga xos “diplomatik moslashuv” yuz berganligini ko'rish mumkin.

Shu jihatdan olganda, mazkur muammo yuzasidan taklif sifatida shuni alohida ta'kidlash lozimki, Anushteginiylar davlati siyosiy hayotida ayollar o'zni masalasini ko'rib chiqish muhim masalalardan biri bo'lib, ko'pgina muammoli masalalarga yechim topilishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar:

1. Шиҳобиддин Муҳаммад ан-Насавий. Султон Жалолиддин Мангуберди ҳаёти тафсилоти. / Камол Матёқубов таржимаси./ – Т.: О‘zbekiston, 2006. – Б.64.
2. Prezbindowski, Lauren, “The Ilkhanid Mongols, the Christian Armenians, and the Islamic Mamluks : a study of their relations, 1220-1335.” (2012). Electronic Theses and Dissertations. Paper 1152. <https://doi.org/10.18297/etd/1152> - P. 78.
3. Khodjayeva Rano. The khwarezmians in medieval arabic and persian manuscripts. Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR) Article DOI: 10.5958/2278-4853.2021.00036.7 Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR). P. 245; Mustafa Kiliç. Halep Eyyubileri. – Ankara, 2019. S. 138.
4. Зия Бунятов. Государство Хорезмшахов-Ануштегинидов (1097-1231). – Москва: Наука, 1986. – С.223.
5. Жувайний Алоуддин Атомалик. Тарихи Жаҳонкушо.(Жаҳон фотиҳи тарихи)/ Масъул муҳаррирлар: Ҳ.Болтабоев, М. Маҳмудов. – Тошкент: MUMTOZ SO‘Z, 2015. – 504 б.